



# МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА РИВОЈЛАНИШ МАРКАЗЛАРИДА БОЛАЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ ВА УЛАРГА QO’YILGAN TALABLAR.

Buxoro pedagogika texnikumi “Rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini tashkil etish” o’quv amaliyoti o’qituvchisi  
**“Qarayeva Dilrabo Tojiyevna.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarida bolalarning faoliyati va uning ahamiyati, qanchalik e’tiborga molik va muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma’lumotlar berib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** tematik vazifa, reja, didaktik material, o’yin uskuna, qurilish, syujetli o’yinlar, til, nutq, san’at, ritmika.

**Annotation:** In this article, the development of development centers in pre-school educational organizations is given information about how significant and important it is.

**Keywords:** thematic task, plan, didactic material, game equipment, construction, plot games, language, speech, art.

**Аннотация:** В данной статье развитию центров развития в дошкольных образовательных организациях дана информация о том, насколько оно значимо и важно.

**Ключевые слова:** тематическое задание, план, дидактический материал, игровой инвентарь, построение, сюжетные игры, язык, речь, искусство.

Faoliyat markazlari va o’yin burchaklari maktabgacha yoshdagi bolalarga qo’yilgan Davlat talablari, “Ilk qadam” davlat dasturi mavzulariga mos ravishda quyidagi talablar bo‘yicha jihozlanadi hamda tegishli qoidalarga amal qilinadi: - bolaning sog‘lig‘ini qo‘llab-quvvatlashga: toza havo (xonalarni shamollatish jadvali, bola xonada bo‘lganda yelvizak bo‘lmasligi) , toza joy (sanitariya talablari asosida) va issiq xona, yorug‘likning (bolaning chap tomonidan) yetarli bo‘lishi; - harakat,



tajriba va kashf qilishga rag‘bat ko‘rsatish: markazda bola faoliyati uchun xavfsizlikning ta’minlanishi, kerakli jihozlarning yetarli bo‘lishi, sanitariya va gigienik talablarga javob berishi; - guruhdagi jihozlarning holati: barcha jihoz va qo‘llanmalar bolaning bo‘yi yetadigan darajada bo‘lishi, kundalik qilinadigan ishlarni biror jadvalda bola ko‘ra oladigan va tushunadigan holatda joylashtirish, iloji boricha juda ko‘p narsalarni bitta joyga ilib qo‘ymaslik, bola ulardan bemalol foydalana oladigan bo‘lishi hamda tarbiyachi uchun ham qulay bo‘lishi;- bolalar o‘rtasida hamkorlik: bolalar hamkorligi va muloqotiga rag‘bat bildirish, kichik guruhlarga bo‘linib, juft bo‘lib ishlashlari, o‘yinlar o‘ynashlariga yetarli sharoit yaratilishi, o‘z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishlariga yordam berish;- xonani markazlar hududlariga bo‘lganda: o‘yinchoqlar, konstrukstiyalar, belgilar, raqamlar va x.k.lar bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan bo‘lishi;

- bolalar mebellarining joylashuvi: bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to‘sinqilik qilmaydigan, bola o‘ziga tegishli mebelni bemalol harakatlantira olishi;
- bolalarning idrok qilishi: bolada idrok etish qobiliyatini rivojlantiruvchi va ijod qilishga undovchi turli shakl va rangdagi materiallar bo‘lishi, tegishlilik, xavfsizlik va erkinlik hissining shakllantirilishi, bolaga erkin tinglash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qilishga undash, turli madaniyatlar mavjudligini his qildirish;- ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkiloti: tomonlar o‘rtasida iliq munosabatni shakllantiruvchi muloqotni o‘rnatuvchi muhitni yaratish;
- bolalar faoliyatida ishlatilayotgan xavfsizlantirish yoki ulardan voz kechish).

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1. “Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’minot va metodik yordamning o‘rni belgilab olindi.

2. “Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o‘rniga alohida e’tibor qaratildi.

Ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida 6 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. **Til va nutq markazi.** (Nutq o‘stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg‘ulotlar)
2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg‘ulotlari)
3. San’at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg‘ulotlari va origami)
4. Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo‘lgan syujetli qoidalari o‘yinlar)
5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari)
6. Misiqa va ritmika markazi

**Qurilish, konstruksiyalash va matematika markazida** turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo‘lib, bolalar ulardan o‘z fantaziyasiga tayangan holdainshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko‘rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg‘ul bo‘lgan bolalar bu yerda juda ko‘pnarsalarni o‘zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini

rivojlantirishga, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallahsga yordamlashadi, muammolarni haletish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o‘rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko‘ra ko‘plab turli narsalarni –

o‘yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo‘laklarini qo‘sib qo‘yish mumkin.

**2.Syujet-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazida** bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik sahna ko‘rinishlarini o‘ynashga xoxish-istak uyg‘otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo‘lishi zarur. Bular ularda atrofda nimalar soir bo‘layotganini anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o‘z o‘rinlarini tushunib yetishlariga yordam beradi.

**3.Til va nutq markazida** kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o‘quv qurollari mavjud bo‘ladi. Bu tinch burchak bo‘lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o‘qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi

yoki ko‘ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o‘qib berishi mumkin. Unda bolalarga kitobchalarni o‘z qo‘llari bilan yasash, mavzu(syujet)larni o‘ylab topish va ijro etish, hikoyalar eshitish taklif etiladi.

**4.Ilm-fan va tabiat markazida** boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig‘ishi va bo‘laklarga ajratishi mumkin bo‘lgan narsalar bo‘lishi lozim. Bu yerda,

shuningdek, bolalarning bir xilda taqposlashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari

uchun yordam beradigan o‘yinlar ham bo‘lishi kerak. Ushbu markazda bolalarning

tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari va ko‘chadan topilgan narsalar bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun foydalilanildi.

**5.San’at markazi** bolalarning o‘z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish va

amalga oshirishga rag‘batlantiradi, ularga yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish olish imkoniyatlarini beradi, bolalarning sezish qobiliyatini boyitadi.

Bu

yerda bo‘yoq, qog‘oz, qaychi, bo‘rchalar, qalamlar, gazlama bo‘laklari va kesish hamda yelimlash uchun turli qiyqimlar mavjud. Shuningdek, tabiiy materiallar

—

yog‘och, barg, qum-tuproqni ham qo‘shib qo‘yish foydadan xoli emas. Ushbu markazdagi mashg‘ulotlar ijodiy qobiliyat, so‘z orqali va so‘zsiz muloqot, umumiyl

va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

**6. Musiqadan va ritmika markazi** butun kun davomida mashg‘ulotlarni birlashtirish uchun foydalanish mumkin. Kuylash, harakatlar, qarsak chalish, o‘yinlar,musiqa asboblari chalish va yozilgan kuy-qo‘shiqlarni tinglash har qanday dasturni yaxshigina to‘ldiradi. Musiqaviy mashg‘ulotlar zehnni charxlaydi, ritmga, sanashga o‘rgatadi va nutqni rivojlantiradi; umumiyl va nozik harakatlanishni (motorikani) rivojlantiradi va ijodiy qobiliyatni namoyish etishga imkon beradi.

Maktabgacha ta’lim sifat va samaradorligini yanada oshirish maqsadida tayyorlov guruhlari uchun mashg‘ulotlar haftaligi tashkil etish mumkin. Bunda mashg‘ulotlar odatdagagi tartib bo‘yicha davom etadi. Lekin har bir haftaga nom beriladi

### Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni maktab ta’limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo‘lib ulg‘ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-

odatlarga sodiq bo‘lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, ro‘yxat raqami 3032.
4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldaggi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
5. Maktabgacha ta’lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarini tayyorlash bo‘yicha trening moduli. T.: 2017y.

“Bolangiz maktabga tayyormi?” O’zb Res. Xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi, Ma’rifat-Madadkor nashriyoti